


## XI. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI




Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1-oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 48 374 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 28 331 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 58,6 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (49,2 %), savdo (17,0 %), sanoat (9,7 %) va qurilish (5,1 %) sohalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni  
(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)





Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar sonining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi  
(2023 yil 1-oktabr holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan foizda	birlik	jamiga nisbatan foizda
<b>Jami</b>	<b>48 374</b>	<b>100,0</b>	<b>28 331</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	23 803	49,2	11 305	39,9
sanoat	4 705	9,7	2 752	9,7
qurilish	2 490	5,1	1 560	5,5
savdo	8 246	17,1	5 768	20,4
tashish va saqlash	685	1,4	428	1,5
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 899	3,9	1 234	4,4
axborot va aloqa	354	0,7	240	0,8
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	389	0,8	334	1,2
boshqa faoliyat turlari	5 803	12,1	4 710	16,6

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1-oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 30 166 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 20 566 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 68,2 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) savdo (27,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (18,5 %) sanoat (15,6 %) va qurilish (8,3 %) sohalariga to'g'ri keladi.



**Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
(2023 yil 1-oktabr holatiga fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>
<b>Jami</b>	<b>30 166</b>	<b>100,0</b>	<b>20 566</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5 595	18,5	3 540	17,2
sanoat	4 705	15,6	2 752	13,4
qurilish	2 490	8,3	1 560	7,6
savdo	8 246	27,3	5 768	28,0
tashish va saqlash	685	2,3	428	2,1
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 899	6,3	1 234	6,0
axborot va aloqa	354	1,2	240	1,2
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	389	1,3	334	1,6
boshqa faoliyat turlari	5 803	19,2	4 710	22,9

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1-oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) Jizzax shahri 8 188 ta (27,1 %), Sharof Rashidov 4 218 ta (14,0 %), G'allaorol 2 735 ta (9,1 %) va Zomin 2 597 ta (8,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.



Jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning  
hududlar bo'yicha taqsimlanishi  
(2023 yil 1-oktabr holatiga, birlik)

	2023 yil 1-oktabr holatiga ro'yxatga olinganlar soni	shuningdek, 2023 yil yanvar-sentabr oylari davomida:	
		yangi tashkil etilganlar	tugatilganlar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>48 374</b>	<b>3 661</b>	<b>1 520</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	8 262	724	378
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	2 760	150	27
Baxmal	4 076	285	110
G'allaorol	5 429	440	232
Sharof Rashidov	6 508	363	133
Do'stlik	2 227	148	76
Zomin	4 680	368	71
Zarbdor	3 798	238	116
Mirzacho'l	2 416	169	64
Zafarobod	2 151	140	59
Paxtakor	2 403	232	67
Forish	2 642	304	158
Yangiobod	1 022	100	29

2023 yilning yanvar–sentabr oylarida jami 3 661 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan (shundan kichik biznes sub'yektlari 3 566 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 692 tasi, yoki 19,4 %) hamda G'allaorol (432 tasi, yoki 12,1 %) Zomin (359 tasi, yoki 10,1 %) Sharof Rashidov (354 tasi, yoki 9,9 %) Forish (301 tasi, yoki 8,4 %) Baxmal (273 tasi, yoki 7,7 %) Zarbdor (232 tasi, yoki 6,5 %) Paxtakor (229 tasi, yoki 6,4 %) Zafarobod (167 tasi, yoki 4,7 %) Arnasoy (149 tasi, yoki 4,2 %) Do'stlik (145 tasi, yoki 4,1 %) Mirzacho'l (137 tasi, yoki 3,8 %) va Yangiobod (96 tasi, yoki 2,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.



**Ro'yxatga olingan yuridik shaxslarni hududlar bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlik)


	2023 yil 1-oktabr holatiga ro'yxatga olinganlar	shuningdek, 2023 yil yanvar-sentabr oylari davomida:	
		yangi tashkil topganlar	tugatilganlar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>30 166</b>	<b>3 599</b>	<b>1 360</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	8 188	724	372
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1 121	147	23
Baxmal	2 051	282	86
G'allaorol	2 735	433	172
Sharof Rashidov	4 218	359	116
Do'stlik	1 308	148	70
Zomin	2 597	360	68
Zarbdor	1 515	213	102
Mirzacho'l	955	161	54
Zafarobod	1 212	138	58
Paxtakor	1 473	231	58
Forish	2 068	304	155
Yangiobod	725	99	26

2023 yilning yanvar–sentabr oylarida (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) jami 3 599 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan (shundan kichik biznes sub'yektlari 3 504 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 724 tasi, yoki 20,1 %), G'allaorol (433 tasi, yoki 12,0 %) va Zomin (360 tasi, yoki 10,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2023 yil 1-oktabr holatiga 26 706 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, shundan xususiy korxonalar 4 942 ta, oilaviy korxonalar 2 550 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 18 745 ta, aksionerlik jamiyatlari 19 tani tashkil etadi.



**Ro'yxatga olingan tijorat korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari bo'yicha soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning 29,2 foizi savdo, 27,4 foizi qishloq va o'rmon baliqchilik xo'jaligi, 18,2 foizi sanoat va 6,7 foizi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasiga to'g'ri keladi.

Hisobot davrida 1 520 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.** 2023 yil 1-oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorij kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 176 tani tashkil etdi.


2023 yilning 1-oktabr holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 176 tani tashkil etdi. Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapital ishtirokida 74 ta, Rossiya Federatsiyasi 39 ta, Xitoy Xalq Respublikasi 35 ta, Angilya Buyuk Britaniya 21 ta, Afg'oniston 4 ta va boshqa davlatlar kapital ishtirokida 3 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.



**Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hamkor davlatlar kesimidagi soni, birlikda**

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 112 tasi qo'shma korxonalar, 64 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

2023-2022 yillar yanvar-sentabr oylari holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapital ishtirokida ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni – 16 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,1 foizga kuzatildi. Bunda, Turkiya Respublikasi – 5 ta, Rossiya Federatsiyasi – 3 ta. Qolaversa boshqa davlatlarning rezidentlari kapital ishtirokida 8 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**  
(2023 yil 1-oktabr holatiga, birlikda)

	2023 yil 1-oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotganlar soni	shundan	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>176</b>	<b>112</b>	<b>64</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	55	33	22
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	7	4	3
Baxmal	7	7	
G'allaorol	11	7	4
Sharof Rashidov	18	12	6
Do'stlik	10	6	4
Zomin	15	9	6
Zarbdor	4	3	1
Mirzacho'l	4	1	5
Zafarobod	7	2	3
Paxtakor	9	8	1
Forish	24	17	7
Yangiobod	5	3	2

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida 55 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 31,2 %), Forish tumanida 24 ta (13,6 %), Sharof Rashidov tumanida 18 ta (10,2 %), Zomin tumanida 15 ta (8,5 %), G'allaorol tumanida 11 ta (6,2 %) hamda Do'stlik tumanlarida 10 ta (5,7 %) ni tashkil etadi.



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi  
(2023 yil 1-oktabr holatiga)

	Korxonalar soni, birlik	Jamiga nisbatan, % da
<b>Jami</b>	<b>176</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	26	14,8
Sanoat	101	57,4
Qurilish	11	6,2
Savdo	18	10,2
Tashish va saqlash	6	3,4
Yashash va ovqatlanish	2	1,1
Axborot va aloqa	1	0,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	0,6
Boshqa faoliyat turlari	10	5,7

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida xorij kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan 176 ta korxonaning 101 tasi (57,9 %) sanoat, 26 tasi (14,8 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 18 tasi (10,2 %) savdo, 11 tasi (6,2 %) qurilish, 6 tasi (3,4 %) tashish va saqlash, 2 tasi (1,1 %) yashash va ovqatlanish, 1 tasi (0,6 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1 tasi (0,6 %) axborot va aloqa hamda 10 tasi (5,7 %) boshqa sohasiga to'g'ri keladi.


**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

(fermer va dehqon xo'jaliklari bilan)

2023 yil 1-oktabr holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 25 093 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2022 yil 1-oktabr holatiga nisbatan 80,5 foizga kamaygan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4 533 tasi (71,2 %) Jizzax shahriga, 3 254 tasi (72,4 %) Sharof Rashidov, 2 748 tasi (87,9 %) G'allaorol va 2 456 tasi (84,7 %) Zomin tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi taqsimoti, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 25 093 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 11 262 tasi (44,9 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 5 758 tasi (22,9 %) savdo, 2 726 tasi (10,9 %) sanoat, 1 541 tasi (6,1 %) qurilishda, 1 230 tasi (4,9 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 426 tasi (1,7 %) tashish va saqlash, 250 tasi (1,0 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 224 tasi (0,9 %) axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1 676 tasi (6,7 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmoqlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa sohalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimoti, % da (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)



2023 yilning yanvar–sentabr oylarida 3 504 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2022 yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 97,0 foizni tashkil qildi. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahrida (692 ta), G'allaorol (425 ta), Zomin (351 ta), Sharof Rashidov (350 ta), Forish (301 ta), Baxmal (270 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Paxtakor (228 ta), Zarbdor (207 ta), Mirzacho'l (159 ta), Arnasoy (146 ta), Do'stlik (145 ta), Zafarobod (135 ta) hamda Yangiobod (95 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni taqqoslanganida eng ko'pi savdo (1 068 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (941 ta), sanoat (667 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (245 ta) sohalari, shuningdek boshqa faoliyat turlari (250 ta) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam esa, qurilish (151 ta), axborot va aloqa (79 ta), tashish va saqlash (68 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (35 ta) sohalari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023 yilning 1-oktabr holatiga 2 550 tani tashkil etdi, ulardan 1 617 tasi yoki 63,4 foizi faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining 592 tasi yoki 36,6 foizi sanoat, 465 tasi yoki 28,8 foizi savdo, 234 tasi yoki 14,5 foizi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 172 tasi yoki 10,6 foizi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 16 tasi yoki 1,0 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 12 tasi yoki 0,7 foizi axborot va aloqa, 10 tasi yoki 0,6 foizi qurilish, 5 tasi yoki 0,3 foizi tashish va saqlash hamda 111 tasi yoki 6,9 foizi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.



### Xususiy korxonalar soni (2023 yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni **2023 yil 1-oktabr** holatiga ko'ra 4 942 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 128 taga yoki 102,7 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 2 973 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 368 taga yoki 68,5 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 411 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 28 taga yoki 93,6 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2023 yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni **2023 yil 1-oktabr** holatiga ko'ra 18 745 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 533 taga yoki 115,6 foizga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 12 513 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 598 taga yoki 82,8 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023 yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan as'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 727 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 198 taga yoki 107,8 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

